

MOLIYAVIY SAVODXONLIK – JAMIYAT RIVOJINING MUHIM OMILI

Qobulov Xotamjon Abdukarimovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Moliya va moliyaviy texnologiyalar”
kafedrasi mudiri, i.f.n., professor

Aholi moliyaviy savodxonligini oshirish jamiyat va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Moliyaviy savodxonlik — bu shaxsning o‘z shaxsiy moliyasini samarali boshqarish, moliyaviy qarorlarni to‘g‘ri qabul qilish va moliyaviy tizimlar bilan ishlash bo‘yicha bilimlari, ko‘nikmalari hamda malakasi.

Agar aholi moliyaviy jihatdan bilimli bo‘lsa, davlatning moliyaviy siyosatlari va islohotlari aholi tomonidan to‘g‘ri qabul qilinishi va unga amal qilinish ehtimoli ortadi. Bu esa milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni yanada muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta‘minlaydi.

Aholining, jumladan, yoshlarning moliyaviy savodxonligini oshirish zarurati davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan sanaladi. Aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishda, bank, soliq, sug‘urta, lizing, fond bozori va boshqa moliyaviy xizmatlardan samarali foydalanishni tashkil etishda oliy ta‘lim muassasalarida tayyorlanadigan mutaxassislarining o‘rni beqiyosdir.

O‘rta ta‘lim (maktab) dasturlariga kiritilgan “Iqtisodiy bilim asoslari” (8-11 sinflarda o‘qitiladi) darsliklari tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, qamrov o‘ta keng olingan bo‘lib, maktab yoshidagi bolalar uchun murakkablik qiladi. Shuningdek, bu yerda maktab yoshidagi bolani o‘z shaxsiy jamg‘arilmalarini shakllantirish, uni ko‘paytirish, undan foydalanish masalalari deyarli chetlab o‘tilgan.

Bu boradagi xorij tajribalariga nazar tashlansa, Rossiya moliya vazirligi tomonidan 2011 yilda amalga kiritilgan “Rossiya Federatsiyasida aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish va moliyaviy ta‘limni rivojlantirishga ko‘maklashish” loyihasi³⁰⁷ doirasida o‘rta maktablarning 2-sinfidan boshlab tanlov fani sifatida “Moliyaviy savodxonlik” kurslari kiritilgan.

Ushbu ilg‘or xorij tajribasidan andoza olgan holda, bizning fikrimizcha, quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

1-variant. O‘rta ta‘lim (maktab) dasturlariga kiritilgan “Iqtisodiy bilim asoslari” (8-11 sinflarda o‘qitiladi) fani tematikasini tubdan qayta ko‘rib chiqish hamda maktab yoshidagi bolani o‘z shaxsiy jamg‘arilmalarini shakllantirish, uni ko‘paytirish, undan foydalanish masalalarini o‘rgatishga yo‘naltirilgan mavzular bilan boyitish. Bunga iqtisodiy oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilarini jalb qilish asqatadi.

2-variant. O‘rta ta‘limning 2-sinfidan boshlab “Moliyaviy savodxonlik” darsini joriy qilish. Fan bo‘yicha bilim berish maqsadida, o‘quvchilarning yoshini

³⁰⁷ Проект “Содействие повышению уровня финансовой грамотности населения и развитию финансового образования в Российской Федерации” / <https://www.minfin.ru/ru/om/fingram/directions/-strategy/>

hisobga olgan holda, darsliklarni 2-4-sinflar uchun, 5-7-sinflar uchun, 8-11-sinflar uchun tayyorlash.

Bu bilan maktab yoshidagi bolalar o'z shaxsiy jamg'arilmalarini shakllantirish, uni ko'paytirish, undan foydalanish bo'yicha bilimlarga ega bo'ladilar.

Shu bilan birga, bolalarda moliyaviy savodxonlikni oshirishga rag'batlantiruvchi turli loyihalar, dasturlar, tadbirlarni tashkil etish zarur.

Masalan, Germaniyada sakson yildan ko'proq vaqtdan buyon har yili "Iqtisod kuni" (Weltspartag) nishonlanadi. Avvaliga bayram g'oyasi Italiyada paydo bo'lgan va bu xalqaro deb nomlanadi. Biroq Germaniyada bu bayram milliy dastur rolini o'ynaydi. Ushbu kun bolalar bir yil davomida jamg'argan ko'p bo'lmagan mablag'larini bankka "joylashtiradilar" va buning uchun ongli moliyaviy harakatini rag'batl sifati sovg'aga suvenirlar, o'yinchoqlar oladilar. Bunday noodatiy yo'l bilan davlat moliyaviy savodli kelajak avlodni tarbiyalaydi³⁰⁸.

O'zbekistonda ham moliyaviy savodli kelajak avlodni tarbiyalashga ko'maklashish maqsadida bir yilda bir marta "Iqtisod kuni"ni tashkil etish hamda moliya muassasalari tomonidan bolalar uchun ularning o'z jamg'arilmalari yordamida turli maxsus moliya xizmatlaridan foydalanish imkoni berilishi lozim.

Yosh bolalarda pul bilan muomala qilishda o'ziga, kattalarda ularga bo'lgan ishonchning pastligi, mustaqillikning yetishmasligi, yetarlicha mustaqillik bilan ta'minlanmaganligi ham ilgari surgan mavzuyimizga oid muammolardan biridir.

Germaniyada bola 11-12 yoshdan, Hindiston, AQShda 10 yoshdan boshlab mustaqil ayrim pulli bank operatsiyalarini bajara oladi, ya'ni uning nomiga bank plastik kartasi ochilishi, undagi mablag'dan mustaqil foydalanish, uni mablag' bilan to'ldirishi mumkin³⁰⁹. Faqatgina bunday kartalardan maktab oshxonasida, jamoat transportida, bolalar uchun mo'ljallangan do'konlar va shu kabilarda foydalanishi mumkin.

O'zbekistonda ham ma'lum bank operatsiyalariga kirishish uchun minimal yosh chegarasini pasaytirish (amalda 16 yosh), bolalarga mo'ljallangan bank plastik kartalarini muomalaga kiritish kerak. Bu bilan yosh bolalarda pul bilan muomala qilish tajribasi shakllanib boradi, o'ziga bo'lgan ishonch ortadi, moliyaviy mustaqillik ko'nikmalari shakllanib boradi.

Bugungi kunda aholining, ayniqsa, yoshlarning turli xil video o'yinlar, mobil ilovalarga qiziqishlari yuqori. Fan-texnika taraqqiyoti, yoshlarning shu kabi qiziqishlaridan foydalangan holda moliyaviy savodxonlikni oshirish hamda rivojlantirishga ko'maklashuvchi o'zbek tilidagi turli video o'yinlar, mobil ilovalar yaratish zarur.

³⁰⁸ Международный день экономии в Берлине / <https://toberlin.ru/-mezhdunarodnyj-den-ekonomii-v-berline/>

³⁰⁹ Sunil Dhawan. 10 things to consider before opening kid's savings account/<https://economictimes.indiatimes.com/wealth/save/want-open-a-savings-account-for-your-child-consider-these-10-points/articleshow/61590671.cms?>

Bolalar uchun ularni rivojlantiruvchi mahalliy media resurslar yetishmaydi. Shu bois, bolalarning yoshiga mos keladigan moliyaviy savodxonlikni shakllantirish, rivojlantirishga xizmat qiluvchi milliy media resurslarni, ya'ni ko'rsatuvlar, tele-o'yinlar, multfilmlar va shu kabilarni yaratish muhim hisoblanadi. Ular orqali, yoshlarning, bolalarning moliyaviy savodxonligini oshirish hamda rivojlantirishga ko'maklashuvchi zamonaviy vositalardan samarali foydalanishga erishiladi.

Yoshlarning moliyaviy savodxonligini bevosita ularning ta'lim maskanlarida, ya'ni maktab, o'rta maxsus ta'lim muassasasi, oliy ta'lim muassasasida ma'lum ta'lim dasturlari yordamida shakllantirish va rivojlantirib borish qulayroqdir. Biroq, aholining keng qatlami – katta yoshdagilar, jumladan, mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotganlar, pensiyadagilar, ishsizlar, uy bekalarini ham moliyaviy savodxonligini oshirish muhim masala hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda turli mustaqil ta'lim, ko'mak, ta'sir vositalaridan unumli foydalanish zarur. Tan olish kerak, mamlakatimizda keng aholi qatlamiga to'g'ri moliyaviy qarorlar qabul qilishga yordam beradigan bepul maslahat xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilot mavjud emas.

Bu borada ham xorij tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2011 yil aprel oyidan boshlab Buyuk Britaniyada maxsus tashkilot – Pul haqida maslahatlar xizmati (Money Advice Service) ishlarini qo'llayotgan. U iste'molchilar uchun moliyaviy ta'lim idorasi (Consumer Financial Education Body, CFEB) tomonidan tashkil etilgan bo'lib, u o'z navbatida 2010 yilgacha Buyuk Britaniyadagi moliyaviy xizmatlarni boshqarish organi (Financial Services Authority, FSA) tarkibiga kirgan. Ushbu xizmat fuqarolarga to'g'ri moliyaviy qarorlar qabul qilishga yordamlashuvchi bepul maslahatlarni beradi. Xizmat mustaqil, uning harakatlari ham yoshlarni, ham kattalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Asosiy maqsad aholining mamlakat ichkarisida va undan tashqaridagi moliyaviy jarayonlarni tushunishini ta'minlashdir³¹⁰.

Ushbu xizmat to'g'ridan-to'g'ri Buyuk Britaniya hukumati tomonidan tashkil etilgan va uning faoliyati FSA tomonidan to'lanadigan to'lovlar hisobiga amalga oshiriladi.

Xorijiy tajribalardan foydalangan holda, O'zbekistonda ham keng aholi qatlamiga moliyaviy qarorlar qabul qilishda adashmaslik imkonini yaratish maqsadida to'g'ri moliyaviy qarorlar qabul qilishga yordam beradigan bepul maslahat xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilot faoliyatini joriy qilish zarur. Jumladan, Internet tarmog'ida moliyaviy savodxonlikni oshirish va moliyaviy xizmatlar iste'molchilari huquqlarini himoya qilishga xizmat qiluvchi maxsus Axborot-ta'lim, maslahat portalini ishga tushirish, onlayn moliyaviy savodxonlik mahsulotlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, katta yoshdagi aholi qatlami, uy bekalarini qiziqishlaridan unumli foydalangan holda moliyaviy savodxonlikni oshirishga xizmat qiluvchi g'oyalar, syujetlar singdirilgan teleseriallar, shuningdek moliyaviy savodxonlik

³¹⁰<https://www.moneyadviceservice.org.uk/en> - Money Advice Service (Pul haqida maslahatlar xizmati) rasmiy veb-sayti

bo'yicha bellashuvchi tele-shoular yaratish mumkin. (Bunday amaliyotni Polsha tajribasida³¹¹ ko'rishimiz mumkin).

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichiga o'tgan Yangi O'zbekistonda ham yaqin kelajakda aholini moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan uzoq muddatli strategiya ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishini zamon taqozo etmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, hayotimiz mazmuni komillikka intilishdan iboratligini hammamiz bilamiz. Shu bois, komil inson bo'lishga hammamiz intilamiz. Buning uchun, eng avvalo, ma'naviy jihatdan boy-barkamol bo'lishimiz kerak. Bu – tabiiy, albatta. Biroq, bizningcha, birgina ma'naviy jihatdan boy bo'lishning o'zi komillik uchun yetarli emas. Buning uchun yana moddiy (moliyaviy) jihatdan ham boy-baquvvat bo'lishimiz kerak.

МАКРОИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МОНЕТАР ОМИЛЛАРИНИ ТАЪСИРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

С.М.Холжўжаев
ТДИУ тадқиқотчиси

Ҳар қайси иқтисод тизимида макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш миллий иқтисодиёт доирасида, жаҳон ҳўжалигида ҳам энг устувор масалалардан бири сифатида қаратилади. Иқтисодиётни ривожлантириш асосан учта йўналишда амалга оширилади, биринчиси бу бозор механизмлари орқали, яъни бозорнинг ўзининг объектив талаблари асосида иқтисодиёт ривожланиб, барқарорликнинг айрим йўналишлари объектив иқтисодий жараён сифатида шаклланади, иккинчиси бу давлатнинг иқтисодиётни тартибга солиш орқали миллий иқтисодиётда макроиқтисодий барқарорлик таъминланиб боради, бозор муносабатларида ҳал этиб бўлмайдиган масалалар давлатнинг зарурий инструментларини қўллаш орқали таъминланади ва учинчиси бу ташқи омиллар бўлиб, миллий иқтисодиётнинг бошқа ташқи бозорлар билан ўзаро алоқасини ташкил қилиш ва уни ривожлантиришнинг зарурлиги ва шу каби йўналишларда юз беради.

Макроиқтисодий барқарорликка иқтисодиётнинг турли соҳаларида мутаносиб давлат сиёсатини олиб боришни тақозо этади, давлат бунга иқтисодий сиёсат юритиш орқали эришади, бу жараёнда эса, жамиятни оқилона тартибга солиш ва иқтисодий сиёсатнинг мослашувчанлиги муҳим аҳамиятга эга. Шу жиҳатдан қараганда мутаносиб иқтисодий ривожланишни таъминлаш, инқирозларнинг олдини олиш ва иқтисодий ўсиш учун қулай шарт-шароитлар яратишга қаратилган чора-тадбирлар макроиқтисодий барқарорликни таъминлашнинг шарти бўлади.

³¹¹ Повышение финансовой грамотности населения: польский опыт / <http://fingramota.org/lichnye-finansy/lichnyj-byudzhnet/item/1313-po-vyshenie-finansovoj-gramotnosti-naseleniya-polskij-opyt>